



**TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

**LABOR ECONOMICS**

# **MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI**

ilmiy elektron jurnali

**LABOR ECONOMICS AND  
HUMAN CAPITAL**

scientific electronic journal

**2026-yil 1-son**

Volume 5, Issue 1, 2026



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI  
VA INSON KAPITALI  
ISSN: 3030-3117**



**LABORECONOMICS.UZ**

**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI**

*№ 1-2026*

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ  
КАПИТАЛ**

**LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL**

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis:** “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

**Tahririyat manzili:**

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,  
49 uy

**Elektron manzil:** [ilmiymaktab@gmail.com](mailto:ilmiymaktab@gmail.com)

**Jurnal web-sayti:** [www.laboreconomics.uz](http://www.laboreconomics.uz)

**Bog‘lanish uchun telefonlar:**

+998998818698

**Tahririyat Kengashi raisi:**

(Chairman of the Editorial Board)

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

**Tahririyat Kengashi a'zolari:**

(Members of the Editorial Board)

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof.  
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.  
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof.  
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof.  
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.  
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.  
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.  
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.  
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.  
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)  
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.  
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., prof.  
Irmatova Aziza Baxramovna, i.f.d., prof.  
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

**Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**

(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)  
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)  
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federatsiyasi)  
Xeynz Miller (AQSh)  
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)  
Masato Xivatari (Yaponiya)  
Gerxard Feldmayer (Germaniya)  
Eko Shri Margianti (Indoneziya)  
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)  
Rohana Ngah (Malayziya)  
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)  
Teguh Dartanto (Indoneziya)  
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)  
Muhammed Xoliq (Pokiston)  
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

**Mas'ul muharrir (Editor-in-Chief):** G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

**Ijrochi muharrir (Executive Editor):** Iskandarova Dilafroz Ikrom qizi

**Veb-administrator (Web admin):** Mamatxo'jayev Otabek

**MUNDARIJA (CONTENTS)****MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

<b>A.B.Irmatova</b> <b>M.A.Ibodullayeva</b>	<i>Raqamli texnologiyalarning joriy etilishining ijtimoiy mehnat munosabatiga ta'siri .....</i>	5-13
<b>I.A.Bakiyeva</b> <b>Z.A.Azamatova</b>	<i>O'zbekistonda mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida iqtisodiy tengsizlikni keltirib chiqaruvchi sabablari va omillari .....</i>	14-25
<b>M.O.Hamroqulov</b>	<i>Barqaror demografik rivojlanish va mehnat resurslarining hududiy muvozanati .....</i>	26-37

**DEMOGRAFIYA**

<b>T.Q.Aliyev</b> <b>Sh.T.Aliyev</b>	<i>Factors affecting demographic development in Azerbaijan and opportunities to use them .....</i>	38-57
---	--	-------

**INSON KAPITALI**

<b>S.M.Dusanov</b>	<i>Ta'lim tizimi moliya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga to'g'ri va aks ta'sir etuvchi omillar .....</i>	58-68
<b>G.Z.Ubaydullayev</b>	<i>Improvement of regional socio-economic development based on human capital management .....</i>	69-76
<b>S.R.Xolbayeva</b>	<i>Классификация участия человека в экономической системе по признаку его функциональной роли и институционального положения в воспроизводственном процессе .....</i>	77-93

**INSON TARAQQIYOTI**

<b>F.A.Abduraxmonov</b>	<i>Digital silk road and Uzbekistan: infrastructure upgrading, inclusion, and digital services growth .....</i>	94-103
<b>Sh.Z.Karimova</b>	<i>Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalashuv darajasini baholashning nazariy asoslari .....</i>	104-109
<b>O.S.Mirzamurodov</b>	<i>Namangan viloyati aholi daromadlari darajasi bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish dinamikasining tahlili .....</i>	110-118

**KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH**

<b>D.I.Iskandarova</b> <b>D.R.Ro'zimurodova</b>	<i>Kambag'allikni qisqartirish va yoshlar bandligini ta'minlashda davlat siyosatining o'rni .....</i>	119-128
--	---	---------

**MIGRATSIYA**

<b>O.O.Dlyanchev</b>	<i>Фактор миграционной политики ФРГ в обеспечении национальных интересов Республики Узбекистан .....</i>	129-140
----------------------	--	---------

**INSON RESURSLARINI BOSHQARISH**

<b>O'X.Abdukarimov</b>	<i>Davlat fuqarolik xizmatida inson resurslarini rivojlantirishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish: xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun xulosalar .....</i>	141-157
<b>F.Z.Tolibova</b>	<i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik boshqaruv samaradorligini ta'minlashda hr analitikaning o'rni .....</i>	158-165

**TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH**

<b>A.S.Abdullayev</b>	<i>Tabiiy falokatlar (NATCAT) qayta sug'urtalashida PML ko'rsatkichini baholashning ekstremal qiymatlar ekonometrikasi .....</i>	166-174
<b>E.D.Abduxakimov</b>	<i>Роль малого бизнеса в обеспечении занятости населения в Узбекистане .....</i>	175-182
<b>M.M.Anvarova</b>	<i>Kichik biznes subyektlarining raqamli platformalar orqali rivojlanishi nazariy asoslari .....</i>	183-190
<b>Sh.U.Karimova</b>	<i>Ekologik barqaror transport turlarini iqtisodiyotga ta'sirini aniqlash va baholash .....</i>	191-199
<b>D.T.Salimov S.D.Tojiyev J.A.Fayziyev</b>	<i>Kobba–Duglas funksiyasi yordamida ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish .....</i>	200-217
<b>M.O.Shadmanova</b>	<i>Mintaqalarda kichik biznes subyektlarini rivojlantirish imkoniyatlari (Toshkent shahri va Toshkent viloyati misolida) .....</i>	218-231



# MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



## O‘ZBEKISTONDA MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA IQTISODIY TENGSIZLIKNI KELTIRIB CHIQRUVCHI SABABLARI VA OMILLARI

**Bakiyeva Iroda Akbarovna**

TDIU, “Mehnat iqtisodiyoti” kafedrası, i.f.n., prof.

**Azamatova Zarina Adham qizi**

TDIU, magistr

DOI: [https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2\\_iss1/a239](https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a239)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida iqtisodiy tengsizlik globallashtirish, raqamlashtirish va texnologik yangilanishlarning iqtisodiy tengsizlikka ta’siri o’rganilgan. O‘zbekistonda mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida iqtisodiy tengsizlikning shakllanish mexanizmlari va omillari tahlil qilingan. Raqamlashtirish va texnologik yangilanishlar yuqori malakali ishchi kuchiga talabni oshiradi, past malakali ishchilar esa raqobatbardoshligini yo‘qotadi va norasmiy bandlik va ijtimoiy himoya yetishmasligi daromad tafovutini kuchaytiradi. Empirik va xalqaro ma’lumotlar asosida O‘zbekiston, MDH va OECD mamlakatlaridagi mehnat bozorida tendensiyalar solishtirildi. Tadqiqot natijalari norasmiy sektorni qisqartirish, malaka va raqamli tayyorgarlikni oshirish, ijtimoiy himoya tizimini kengaytirish va hududiy tafovutlarni kamaytirish orqali iqtisodiy tengsizlik darajasini kamaytirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** Mehnat bozori, iqtisodiy tengsizlik, transformatsiya, norasmiy bandlik, raqamlashtirish, malaka va ko‘nikmalar, ishchi kuchi, ijtimoiy himoya, bandlik siyosati, hududiy tafovutlar.

## ПРИЧИНЫ И ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЕ НЕРАВЕНСТВО В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ РЫНКА ТРУДА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Бакиева Ирода Акбаровна**

К.э.н., профессор кафедры «Экономика труда» ТГЭУ

**Азаматова Зарина Адхам кизи**

Магистр ТГЭУ

**Аннотация.** В данной статье изучено влияние глобализации, цифровизации и технологических обновлений на экономическое неравенство в условиях трансформации рынка труда. Проанализированы механизмы и факторы формирования экономического неравенства на рынке труда в Узбекистане. Цифровизация и технологические изменения повышают спрос на высококвалифицированную рабочую силу, в то время как низкоквалифицированные работники теряют конкурентоспособность, а высокая доля неформальной занятости и недостаточность социальной защиты усиливают разрыв в доходах. На основе эмпирических и международных данных проведено

сравнение тенденций на рынке труда в Узбекистане, странах СНГ и государствах ОЭСР. Результаты исследования позволили разработать научно обоснованные рекомендации по снижению уровня экономического неравенства через сокращение неформального сектора, повышение квалификации и цифровой подготовки работников, расширение системы социальной защиты и уменьшение региональных диспропорций.

**Ключевые слова.** Рынок труда, экономическое неравенство, трансформация, неформальная занятость, цифровизация, квалификация и навыки, рабочая сила, социальная защита, политика занятости, региональные различия.

---

## **CAUSES AND FACTORS OF ECONOMIC INEQUALITY IN THE CONTEXT OF LABOR MARKET TRANSFORMATION IN UZBEKISTAN**

**Bakiyeva Iroda Akbarovna**

Professor of the "Labour Economics" Department, TSUE

**Azamatova Zarina Adham qizi**

Master's student, TSUE

**Abstract.** This article examines the impact of globalization, digitalization, and technological advancements on economic inequality in the context of labor market transformation. It analyzes the mechanisms and factors shaping economic inequality in Uzbekistan's labor market. Digitalization and technological changes increase the demand for highly skilled workers, while low-skilled workers lose competitiveness, and the high share of informal employment combined with insufficient social protection exacerbates income disparities. Based on empirical and international data, trends in the labor markets of Uzbekistan, CIS countries, and OECD states are compared. The study results provide scientifically grounded recommendations to reduce economic inequality through the reduction of the informal sector, enhancement of skills and digital literacy, expansion of social protection systems, and reduction of regional disparities.

**Keywords.** Labor market, economic inequality, transformation, informal employment, digitalization, qualifications and skills, labor force, social protection, employment policy, regional disparities.

### **Kirish**

Jahon iqtisodiyotida kechayotgan globallashtirish va raqamlashtirish jarayonlari mehnat bozori tuzilmasini tubdan o'zgartirmoqda. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda yuqori malaka va raqamli ko'nikmalar talab qilinadigan kasblarga ehtiyoj barqaror oshib bormoqda, past malakali mehnat ulushi esa qisqarish tendensiyasini ko'rsatmoqda<sup>1</sup>. Natijada malaka darajasiga qarab ish haqi tafovutlari kengayib, daromadlar taqsimotida sezilarli farqlar yuzaga kelmoqda. Bu jarayon aynan raqamli texnologiyalar joriy etilayotgan mamlakatlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda va ushbu ko'rsatkichlar so'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil iqtisodiy islohotlar mehnat bozorida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasida iqtisodiy o'sish, bandlikni oshirish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan va strategiyada 2026-yilga

---

<sup>1</sup> The international Labour Organization (1919), World Bank(1944)

kelib kambag'allik darajasini 2 baravarga kamaytirish va yuz minglab yangi ish o'rinlari yaratish ko'zda tutilgani bu masalaning davlat siyosati darajasida ustuvor ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi<sup>22</sup>. Shuningdek, yangi ish o'rinlarini yaratish, kambag'allik darajasini kamaytirish va bandlikni oshirish kabi ustuvor maqsadlarni belgilaydi va raqamli iqtisodiyot va texnologik yangilanishlarni qo'llab-quvvatlash orqali ishchi kuchining malakasini oshirish, barqaror daromad va ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, mehnat bozori transformatsiyasi natijasida ish o'rinlari tarkibida sifat o'zgarishlari yuz bermoqda, bu esa raqamlashtirish va texnologik yangilanishlar yuqori malaka va raqamli ko'nikmalarni talab qiladigan sohalarga ehtiyojni oshirmoqda, past malakali ishchi kuchiga bo'lgan talab esa kamayib bormoqda. Ushbu jarayonlar mehnat bozori tuzilmasini yangilab, yuqori malakali va raqamli ko'nikmalarga ega ishchi kuchiga talabni oshiradi, past malakali ishchilar esa raqobatbardoshligini yo'qotadi. Natijada ish haqi tafovutlari kengayib, daromadlar taqsimotida sezilarli farqlar yuzaga keladi, va bu iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ushbu maqolada mehnat bozori transformatsiyasining shakllanish mexanizmlari, iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiruvchi omillar va ularni kamaytirish bo'yicha strategik yechimlar empirik ma'lumotlar, xalqaro tajribalar va statistik tahlillar asosida o'rganiladi. Tadqiqot O'zbekiston, MDH mamlakatlari va rivojlangan OECD davlatlari tajribasini qiyosiy solishtirish orqali mehnat bozori transformatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlashga va ularni kamaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

O'zbekistonda mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida norasmiy bandlikning yuqoriligi va past malakali ishchilar sonining ko'pligi iqtisodiy tengsizlikni saqlab qoluvchi asosiy omil hisoblanadi. Shu bilan birga, yuqori malakali va raqamli ko'nikmalarga ega ishchilar sonining nisbatan kamligi, ularning ish haqi va imkoniyatlari past malakali ishchilar bilan solishtirganda sezilarli darajada ustun bo'lishiga olib keladi.

O'zbekistonda norasmiy bandlik muammosining hanuzgacha mavjudligi, iqtisodiy tengsizlikning saqlab qoluvchi asosiy omil ekanligi va norasmiy sektorda ishlayotganlarning ijtimoiy himoya va barqaror daromadlardan mahrum bo'lishi va natijada aholi farovonligini pasaytirilishi o'rganilayotgan muommoning dolzarbligini belgilaydi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi**

Mehnat bozori transformatsiyasi zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u mehnat resurslarining taqsimlanishi, ish o'rinlari tuzilishi hamda daromadlar taqsimotini tubdan o'zgartirmoqda.

---

<sup>22</sup> “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Prezident Farmoni (PF–60, 28.01.2022)

O‘zbekistonda mazkur muammo ustida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarda bir qator taniqli olimlar mehnat bozori segmentatsiyasi, norasmiy bandlik, hududiy nomutanosiblik va ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini tahlil qilgan. Jumladan, akademik Q.X. Abdurahmonov [1], R.Sh. Sultonov [2], B.A. Qodirov [3], N.M. G‘aniyeva [4], S.R. Abdukarimov [5] kabi olimlar o‘zlarining ilmiy izlanishlari davomida bozor munosabatlari jarayonida ijtimoiy tengsizlik muommolarini keng ma’noda yoritishgan. Akademik Qalandar Abdurahmonov O‘zbekistonda mehnat bozori, ish bilan bandlik siyosati va ijtimoiy himoya tizimi bo‘yicha yirik ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan biri bo‘lib va uning tadqiqotlari asosan mehnat bozorining strukturaviy o‘zgarishlari, ish o‘rinlari sifati, norasmiy bandlik hamda ijtimoiy kafolatlar tizimi bilan bog‘liq muammolarga qaratilgan. Q.Abdurahmonovning ilmiy qarashlari shundan iboratki, mehnat bozori transformatsiyasi jarayonida sun‘iy intellektning va raqamli texnologiyalarning ish o‘rinlarini sifat jihatdan o‘zgarishiga ta‘sirida daromadlar taqsimotida notenglikni kuchaytiradi [1].

MDH mamlakatlarida mehnat bozori transformatsiyasi post-sovet davrida bozor islohotlari, privatizatsiya va institutlar o‘zgarishi bilan bog‘liq ravishda o‘rganiladi. Rossiya olimi V.I. Gaidar [6] Bozor liberallashtirilishi va privatizatsiya natijasida ijtimoiy taqsimotning buzilishi, ish haqi tafovutlarining ortishini ta’kidlagan. A.V. Shleifer [7] nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy transformatsiya jarayonida institutlar (huquqiy tizim, mulk huquqi, sud va raqobat) zaif bo‘lsa, bozor mexanizmi to‘liq ishlamaydi va norasmiy iqtisodiyot hamda korrupsiya kuchayadi. Shleifer “The Grabbing Hand” konsepsiyasi orqali davlatning korrupsiya va byurokratiya orqali resurslarni bir necha guruh qo‘lida jamlab, daromadlar notekisligini oshirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bozor va davlat o‘rtasidagi muvozanat buzilganda, mehnat bozori ham segmentlashib, ish haqi tafovutlari kengayadi hamda zaif qatlamlar ijtimoiy himoyasiz qoladi. A.A. Ivanov [8] va O.V. Kuznetsov [9] norasmiy sektor va mehnat bozorining segmentatsiyasi (rasmiy/norasmiy) masalalarini o‘rganib, post-sovet hududlarda mehnat bozorining “ikkinchi darajali” qatlamlari paydo bo‘lishini ta’kidlaydilar.

Xorijiy olimlar mehnat bozori transformatsiyasi va iqtisodiy tengsizlikni texnologik o‘zgarishlar, globalizatsiya, kapital va mehnat taqsimoti nuqtai nazaridan keng o‘rgangan. Thomas Piketty [11] kapital va daromadlar taqsimoti bo‘yicha “kapitalning tez o‘sishi daromad tengsizlikni kuchaytiradi” degan nazariyani ilgari surib, kapital daromadlari va mehnat daromadlari o‘rtasidagi farq tengsizlikning asosiy manbai ekanini ta’kidlaydi. David Autor [12] esa “skill-biased technological change” (malakaga yo‘naltirilgan texnologik o‘zgarish) g‘oyasi orqali avtomatlashtirish yuqori malakali ishchilarning ish haqi o‘shishini tezlashtirib, past malakali ishchilarni siqib chiqishini ko‘rsatadi. Guy Standing [14] va Richard Freeman [15] globalizatsiya va mehnat bozoridagi institutlar (kasaba uyushmalari, mehnat qonunchiligi) daromadlar taqsimotiga ta‘sirini o‘rganib, global raqobat ish

haqi va bandlik strukturasi o'zgartirib, tengsizlikni oshirishi mumkinligini ta'kidlaydi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Ushbu tadqiqotning metodologik bo'limi mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida iqtisodiy tengsizlikning shakllanish mexanizmlari va omillarini tizimli tarzda o'rganish uchun tanlangan yondashuv va usullarni asoslaydi. Mehnat bozori va ijtimoiy tengsizlik o'zaro bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar bo'lgani uchun tadqiqotda faqat bitta metod emas, balki kompleks metodologiya qo'llanilgan. Bu yondashuv mehnat bozori transformatsiyasining nazariy asoslarini, empirik ma'lumotlar tahlilini hamda xalqaro tajribani birlashtirish orqali mavzuni chuqur va keng qamrovda o'rganishga imkon beradi va tadqiqotda statistik tahlil usullaridan foydalanib, ma'lumotlar bazalari va xalqaro hisobotlar, jumladan Jahon banki hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi materiallari asosida iqtisodiy tengsizlik ko'rsatkichlari baholanadi.

Mehnat bozori transformatsiyasi (globalizatsiya, raqamlashtirish, avtomatlashtirish) va iqtisodiy tengsizlik (daromadlar farqi, norasmiy bandlik, hududiy tafovutlar) o'rtasidagi sabab-natija munosabati induktiv-deduktiv yondashuv orqali tahlil qilindi. Tadqiqotda O'zbekiston, MDH mamlakatlari va rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi qiyosiy solishtirildi. Bu usul yordamida mehnat bozori transformatsiyasi jarayonida yuzaga keladigan tengsizlik omillari va ularni kamaytirish bo'yicha siyosat choralari taqqoslandi. Empirik tadqiqot usullari statistik ma'lumotlar tahlilida asosiy metod sifatida qo'llanildi. Ushbu statistik ma'lumotlar tahlili orqali mehnat bozoridagi o'zgarishlar va tengsizlik indikatorlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashga harakat qilindi.

### **Tahlil va natijalar**

Hozirgi kunda mehnat bozori iqtisodiy rivojlanishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Global iqtisodiy o'zgarishlar, texnologik taraqqiyot va raqamli transformatsiya jarayonlari mehnat bozorining tuzilishi va faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ishchi kuchiga bo'lgan talab, malaka talablari hamda bandlik shakllari tobora o'zgarib bormoqda. Zamonaviy sharoitda iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda iqtisodiy tengsizlik muammosi ham dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Mehnat bozoridagi strukturaviy o'zgarishlar ayrim aholi guruhlari uchun yangi imkoniyatlar yaratgan bo'lsa, boshqalari uchun bandlik va daromad barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli mehnat bozori transformatsiyasi jarayonlarini tahlil qilish iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ishchi kuchining malaka darajasi, ta'lim sifati va innovatsion iqtisodiyotga moslashuvchanligi mamlakatlarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mehnat

bozori rivojlanish tendensiyalarini o‘rganish hamda iqtisodiy tengsizlikka ta’sir etuvchi omillarni aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir.

**1-jadval**

**Mehnat bozori va iqtisodiy tengsizlik ko‘rsatkichlari  
(2021-2024 yillar)**

<b>Ko‘rsatkich</b>	<b>O‘zbekiston</b>	<b>MDH mamlakatlari</b>	<b>OECD davlatlari</b>
<b>Norasmiy bandlik ulushi</b>	~32-33% (2024)	20-40% oralig‘ida	Odatda 5-15%
<b>Ishsizlik darajasi</b>	6-7%	5-10%	3-7%
<b>Daromad tengsizligi (Gini koeffitsienti)</b>	0.30-0.35 (baholangan diapazon)	~0.30-0.45	Ko‘pincha ~0.25-0.35
<b>Raqamli ko‘nikmalar ulushi</b>	O‘sish bosqichida	O‘rtacha darajada	Yuqorli daraja
<b>Ijtimoiy himoya qamrovi</b>	O‘sib bormoqda	O‘rtacha	Juda yuqori

Manba: Jahon banki (World Bank), OECD statistik bazasi va O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligima’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.


1-jadvaldan kelib chiqib, solishtirma tahlil nuqtai nazarida, mehnat bozori transformatsiyasi va iqtisodiy tengsizlik darajasi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi, bandlik sifati, ijtimoiy himoya tizimi va raqamli iqtisodiyotga tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liq. Bu esa iqtisodiy tengsizlikni saqlab qoluvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, yuqori malakali kadrlar va raqamli ko‘nikmalarga ega ishchilar soni nisbatan kamligi, ularning ish haqi va imkoniyatlari bilan past malakali ishchilar o‘rtasida farqni yanada oshiradi. O‘zbekistonda mehnat bozori transformatsiyasi jarayonida norasmiy bandlik ulushi yuqori bo‘lib, ishchi kuchining katta qismi barqaror daromad va ijtimoiy himoyadan mahrum. Shu bilan birga, yuqori malakali kadrlar va raqamli ko‘nikmalarga ega ishchilar soni nisbatan kam, bu esa ularning ish haqi va imkoniyatlarini past malakali ishchilar bilan solishtirganda sezilarli darajada oshiradi. Natijada, iqtisodiy tengsizlikni saqlab qoluvchi asosiy omil sifatida norasmiy bandlik va malaka farqi namoyon bo‘ladi.

MDH mamlakatlarida vaziyat o‘xshash bo‘lib, norasmiy bandlik va daromad tafovuti mamlakatlar kesimida farq qiladi. Ayrim mamlakatlarda sanoat va xizmatlar sektori yetarlicha rivojlangan bo‘lsa, boshqalarda qishloq xo‘jaligi ustun bo‘lib, ish o‘rinlarining sifati past va norasmiy sektorda ishlash holatlari yuqori. Bu hududlarda ham raqamli ko‘nikmalar yetishmasligi va ijtimoiy himoya tizimi o‘rtacha darajada ekanligi tengsizlikni kuchaytiruvchi omil hisoblanadi. Bu hududlarda raqamli ko‘nikmalar yetishmasligi, ijtimoiy himoya tizimining o‘rtacha darajasi va yuqori malakali ishchi kuchining

cheklanganligi iqtisodiy tengsizlikni yanada kuchaytiradi. Shuningdek, mehnat migratsiyasi va yoshlar ulushi yuqori bo'lgan hududlarda norasmiy bandlik va past malakali ish o'rinlari muammosi ortadi, bu esa ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni xavf ostiga qo'yadi.

Rivojlangan OECD davlatlarida esa mehnat bozori sezilarli darajada rasmiylashgan, ijtimoiy himoya tizimi keng qamrovli va bandlik siyosati moslashuvchan. Yuqori malakali ishchi kuchi, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va innovatsion sektorga e'tibor iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi, daromadlar tafovutini nisbatan kamaytiradi. Shu sababli OECD davlatlarida iqtisodiy tengsizlik darajasi past va barqaror hisoblanadi. Rivojlangan OECD davlatlarida esa mehnat bozori sezilarli darajada rasmiylashgan, ijtimoiy himoya tizimi keng qamrovli va bandlik siyosati moslashuvchan. Bu davlatlarda yuqori malakali ishchi kuchi va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi mehnat bozori imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, innovatsion sektor va texnologik yangilanishlarga e'tibor daromadlar tafovutini kamaytiradi va iqtisodiy tengsizlik darajasini nisbatan past va barqaror qiladi.

Buning natijasida, mamlakatlar iqtisodiy siyosat va mehnat bozorini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda norasmiy bandlikni qisqartirish, malaka va raqamli tayyorgarlikni oshirish hamda ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish muhim vazifa sifatida qaraladi. Shu bilan birga, hududlararo tafovutlarni kamaytirish va yoshlar hamda kam malakali ishchilar uchun imkoniyatlarni kengaytirish orqali barqaror mehnat bozori yaratish mumkin. Shunday qilib, mehnat bozori transformatsiyasi va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, mamlakatlarning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishi va ijtimoiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



### 1-rasm. Norasmiy bandlik va daromad tengsizligi taqqoslamasi

Manba: Jahon banki (World Bank), OECD statistik bazasi va O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligima'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ushbu rasmdan ko'rinadiki, O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasidagi mehnat bozori transformatsiyasi jarayonida iqtisodiy tengsizlikning shakllanishi bir nechta omillar bilan bog'liq. Hozirgi kunda O'zbekistonda norasmiy bandlik ulushi taxminan 33% ga yetgan, bu ishchi kuchining katta qismi rasmiy huquqiy va ijtimoiy himoyadan mahrum ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli daromadlar barqarorligi past bo'lib, yuqori malakali va raqamli ko'nikmaga ega ishchilar past malakali ishchilar bilan solishtirganda ish haqi va imkoniyatlar bo'yicha ustunlikka ega bo'ladi.

MDH mamlakatlarida norasmiy bandlik o'rtacha 20–40% oralig'ida bo'lib, mamlakatlar kesimida farqlar mavjud. Bu hududlarda daromad tengsizligi Gini koeffitsienti orqali o'lchaganda o'rtacha 0.38 ga teng bo'lib, iqtisodiy farqlar ayrim davlatlarda kuchliroq namoyon bo'ladi. OECD davlatlarida esa norasmiy bandlik faqatgina 5-15% bo'lib, mehnat bozori rasmiylashgan, ijtimoiy himoya tizimi keng va daromad tafovuti past (~0.30). Bu rivojlangan davlatlarda iqtisodiy imkoniyatlar barqaror va ishchilar yuqori malaka va raqamli tayyorgarlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Raqamli ko'nikmalar va mehnat bozori transformatsiyasi o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud. O'zbekistonda raqamli ko'nikmalar ulushi rivojlanish bosqichida, yuqori malakali ishchi kuchi cheklangan. MDH mamlakatlarida bu ko'rsatkich o'rtacha bo'lsa, OECD davlatlarida yuqori bo'lib, ishchi kuchi texnologik yangilanishlarga moslashgan va daromad o'sishidan ulush oladi. Shu sababli raqamli tayyorgarlik iqtisodiy tengsizlikni kamaytiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida yoshlar ulushi yuqori, O'zbekistonda esa taxminan 30% ni tashkil qiladi. Yoshlar ko'pligi yangi ish o'rinlari yaratish zaruratini oshiradi. Agar ish o'rinlari yetarli bo'lmasa, yoshlar norasmiy sektorga yoki chet elga migratsiya qilishga majbur bo'ladi. OECD mamlakatlarida yoshlar ulushi pastroq (15–25%) va ish o'rinlari keng bo'lgani uchun bu muammo sezilmaydi. Ijtimoiy himoya tizimi mehnat bozori transformatsiyasi va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbekistonda ijtimoiy himoya rivojlanish bosqichida bo'lsa, MDH mamlakatlarida o'rtacha, OECD davlatlarida esa keng qamrovli. Kuchli ijtimoiy himoya tizimi norasmiy bandlikni kamaytiradi, ishchilarni barqaror daromad bilan ta'minlaydi va daromad tafovutini yumshatadi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda mehnat bozori transformatsiyasi jarayonida yuqori malakali ishchilar sonini oshirish va raqamli ko'nikmalarni kengaytirish dolzarb vazifa sifatida qaraladi. Raqamli iqtisodiyotga tayyorgarlik darajasi oshirilsa, past malakali ishchilar ham yuqori malakali ishchilar bilan teng imkoniyatlarga ega bo'lishi mumkin. MDH mamlakatlarida malaka va raqamli ko'nikmalar yetishmasligi daromad tafovutini kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. OECD davlatlarida esa innovatsion va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi ishchilarning daromad o'sishini rag'batlantiradi. Norasmiy bandlikni qisqartirish, hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va ijtimoiy himoya tizimini

kuchaytirish orqali iqtisodiy tengsizlikni sezilarli darajada pasaytirish mumkin. Shu bilan birga, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun mehnat bozori transformatsiyasini samarali boshqarish iqtisodiy rivojlanish va tengsizlikni kamaytirishda strategik ahamiyatga ega bo‘ladi.

## 2-jadval

### Mehnat bozori transformatsiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlar (2024 yil)

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston	MDH mamlakatlari	OECD davlatlari
Mehnat unumdorligi o‘sishi	4%	2-4%	1-3%
Oliy ma‘lumotli ishchi kuchi ulushi	24-25%	25-35%	40-50%
Yoshlar ishsizligi	15-16%	12-18%	8-12%
Ayollar ish bilan bandlik darajasi	42-44%	45-55%	60-70%
Raqamli iqtisodiyot ulushi	3%	4-6%	10-20%
Kambag‘allik darajasi	12%	10-20%	5-12%

Manba: Jahon banki (World Bank), OECD statistik bazasi va O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2-jadval shuni ko‘rsatadiki, 2024-yilda O‘zbekiston mehnat bozori va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari MDH va OECD davlatlari bilan solishtirilganda sezilarli tendensiyalarni ko‘rsatmoqda. Mehnat unumdorligi 4% ga oshgan bo‘lib, bu MDH davlatlaridagi 2–4% va OECD mamlakatlaridagi 1–3% ko‘rsatkichidan yuqoridir. Bu ishchi kuchining samaradorligi oshayotganini va iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari natijasida ishlab chiqarish samarasi ortayotganini tasdiqlaydi.

Oliy ma‘lumotlilar ulushi O‘zbekistonda ~29% ni tashkil etib, MDH mamlakatlari o‘rtacha ko‘rsatkichlari (25–35%) bilan mos keladi, ammo OECD standartlaridan (40–50%) orqada qolmoqda. Bu yuqori malakali ishchi kuchini rivojlantirish va oliy ta‘lim tizimini kuchaytirish zaruratini ko‘rsatadi.

O‘ganilayotgan davrda yoshlar ishsizligi 15–16% ni tashkil qilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich MDH mamlakatlaridagi 12–18 % va OECD mamlakatlaridagi 8–12 % bilan solishtirganda yuqoriekanligini ko‘rish mumkin. Shu bois, mamlakatda yoshlar ish bilan bandligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati dolzarbligicha qolmoqda. Ayollar ish bilan bandlik darajasi esa 42–45% ni tashkil etib, MDH davlatlari (45–55%) va OECD mamlakatlari (60–70%) bilan solishtirganda pastroqdir. Bu ayollar mehnat bozorida integratsiya va gender tengligini oshirish zaruratini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi O‘zbekistonda 3% bo‘lib, MDH mamlakatlarining 4–6 % va OECD davlatlarining 10–20 %

ko'rsatkichidan pastdir. Bu raqamli transformatsiya va texnologik investitsiyalarni kengaytirish zaruratini bildiradi.

Shu bilan birga, kambag'allik darajasi 12% ni tashkil etib, MDH mamlakatlari diapazonida (10–20%) va OECD davlatlari darajasiga (5–12%) yaqinlashmoqda. Bu ijtimoiy siyosat samaradorligi va iqtisodiy o'sish natijalarini aks ettiradi.

Umuman olganda, empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mehnat bozorida modernizatsiya va raqamlashtirish jarayoni sekin-asta natija bermoqda. Yuqori malakali ishchi kuchi va mehnat unumdorligi ortib bormoqda, ammo yoshlar ishsizligi, ayollar bandligi va raqamli iqtisodiyot ulushi bo'yicha OECD davlatlaridan ortda qolmoqda. Shu sababli, iqtisodiy siyosat va ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish davom ettirilishi zarur.

### **Xulosa va takliflar**

Mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy tengsizlikning shakllanishi bir nechta asosiy omillar bilan bog'liq. Norasmiy bandlik ulushi yuqori bo'lib, ishchi kuchining katta qismi barqaror daromad va ijtimoiy himoyadan mahrum. Shu bilan birga, yuqori malakali va raqamli ko'nikmalarga ega ishchilar soni nisbatan kamligi, ularning ish haqi va imkoniyatlari past malakali ishchilar bilan solishtirganda sezilarli darajada oshishiga olib keladi. Natijada daromadlar tafovuti kengayadi va iqtisodiy tengsizlik barqaror shaklda saqlanadi.

MDH mamlakatlarida norasmiy bandlik va daromad tafovuti mamlakatlar kesimida farq qiladi. Sanoat va xizmatlar sektori rivojlangan hududlarda ish o'rinlari sifati yuqori bo'lsa, qishloq xo'jaligi ustun bo'lgan hududlarda norasmiy sektor va past malakali ish o'rinlari ko'p uchraydi. Shu bilan birga, raqamli ko'nikmalar yetishmasligi va ijtimoiy himoya tizimi o'rtacha darajada bo'lishi daromadlar tafovutini oshiradi.

Rivojlangan OECD davlatlarida mehnat bozori rasmiylashgan, ijtimoiy himoya tizimi keng qamrovli, yuqori malaka va raqamli tayyorgarlikka ega ishchilar mavjud. Bu esa daromadlar tafovutini kamaytiradi va iqtisodiy tengsizlik darajasini past va barqaror qiladi.

Yuqoridagi tahlillar va berilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagi xulosalar qilish mumkin:

Norasmiy bandlikni kamaytirish – ishchilarni rasmiy ish o'rinlariga jalb qilish va barqaror daromad bilan ta'minlash, shu orqali ishchilar ijtimoiy himoya tizimi bilan qamrab olinadi. 2024 yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda norasmiy bandlik ulushi 33% ni tashkil qiladi, bu yuqori darajada va iqtisodiy barqarorlikni cheklaydi.

Malaka va raqamli tayyorgarlikni oshirish – kasbiy ta'lim, raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish va yuqori malakali ishchi kuchini shakllantirish orqali iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish. Xalqaro tajribaga ko'ra, OECD

davlatlarida raqamli ko'nikmalar ulushi 70–80% ga yetgan, bu daromadlar tafovutini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy himoya tizimini kengaytirish – pensiya, sug'urta va boshqa ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlash, ayniqsa yoshlar, ayollar va qishloq joylar aholisi uchun barqaror daromadni ta'minlash. MDH mamlakatlarida ijtimoiy himoya qamrovi o'rtacha bo'lib, O'zbekistonda rivojlanish bosqichida, OECD davlatlarida esa yuqori darajada.

Hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish – hududiy rivojlanish dasturlari orqali ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy imkoniyatlarni tenglashtirish va migratsiyani boshqarish. Masalan, Qoraqalpog'iston va Farg'ona vodiysi kabi hududlarda past malakali ishchi kuchi va yuqori norasmiy bandlik mavjud.

Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash – avtomatlashtirish va texnologik yangilanishlarga moslashgan mehnat bozorini shakllantirish orqali iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlarini yaratish. Bu esa yoshlar va yuqori malakali ishchilar uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Natijada, yuqoridagi choralar mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga va aholining farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu strategiyalar O'zbekiston va MDH mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotga moslashuv, malakali ishchi kuchini shakllantirish va norasmiy bandlikni qisqartirish orqali uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Abdurahmonov, K. X. Labour economics: Theory and Practise (2020)
2. Sulonov, R. Sh. Norasmiy bandlik va iqtisodiy tengsizlik – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.
3. Qodirov, B. A. Mehnat bozori segmentatsiyasi va hududiy tafovutlar – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. G'aniyeva, N. M. Ijtimoiy himoya tizimi va mehnat resurslari – Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar, 2021.
5. Abdukarimov, S. R. Mehnat bozori transformatsiyasi va raqamli iqtisodiyot – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
6. International Labour Organization (ILO). World Employment and Social Outlook – Geneva, 1919.
7. World Bank. World Development Indicators – Washington D.C., 1944.
8. Prezident Farmoni PF-60. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida, 28.01.2022.
9. Gaidar, V. I. Economic Reforms in Post-Soviet Countries – Moscow: Nauka, 2000.
10. Shleifer, A. The Grabbing Hand: Government Pathologies and Their Cures – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1998.

11. Ivanov, A. A. Norasmiy sektor va mehnat bozorining segmentatsiyasi – St. Petersburg: Ekonomika, 2005.
12. Kuznetsov, O. V. Post-Soviet Labor Markets: Challenges and Opportunities – Moscow: Finance and Statistics, 2010.
13. Piketty, T. Capital in the Twenty-First Century – Cambridge, MA: Belknap Press, 2014.
14. Autor, D. Skill-Biased Technological Change and Labor Markets – Journal of Labor Economics, 2015.
15. Standing, G. The Precariat: The New Dangerous Class – London: Bloomsbury Academic, 2011.

# Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz